

**Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasida
kontragentlarni tekshirishga oid**

YO'RIQNOMA

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo'riqnoma Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasi (*keyingi o'rinlarda – klinika deb yuritiladi*) tomonidan xarid qilish tartib-taomillari, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishda ishtirokchilarni majburiy tekshirishning (*keyingi o'rinlarda Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish*) asosiy talablari, tartibi va usullarini belgilaydi.

2. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Klinika xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish;

insofsiz ijrochi bilan shartnoma tuzish xatarini kamaytirish;

xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash;

kontragent bilan shartnoma tuzish to'g'risidagi qarorni tegishli darajada ehtiyotkorlik bilan qabul qilish.

3. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish xaridning barcha ishtirokchilari, shu jumladan, ular o'rtasidagi aloqa mavjudligi ehtimoli nuqtai-nazaridan ham amalga oshiriladi.

4. Klinika ushbu Yo'riqnomaning 6 va 7-bandida ko'rsatilganlardan tashqari barcha yangi kontragentlarga nisbatan, shuningdek amaldagi kontragentlarga nisbatan kamida bir yilda bir marta amalga oshiriladi.

5. Ushbu Yo'riqnomaning 6 va 7-bandida ko'rsatilgan holatlardan tashqari, kontragent tekshiruv natijalari bo'yicha xulosani olmasdan turib shartnomani imzolash va to'lovlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

6. Elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion shaklida o'tkazilgan xaridlar bo'yicha kontragentlar tekshirilmaydi.

7. Shuningdek, tekshiruv quyidagi kontragentlarga nisbatan amalga oshirilmasligi mumkin:

- Klinika markaziy apparati bilan yoki tizimosti tashkilotlari bilan o‘zaro shartnomaviy munosabatga kirishayotgan bo‘lsa;

- kommunal va boshqa shu kabi xizmatlarni (*shu jumladan, elektr, gaz, issiqlik, muhandislik-texnika, suv ta’minoti, suv chiqarish, oqava suvlarni tozalash, qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish va h.k.*), shuningdek, davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlar (*ishlarning, xizmatlarning*) narxlar (tariflar) bo‘yicha yetkazib beruvchi hisoblangan kontragentlar;

- O‘zbekiston Respublikasining tabiiy monopoliyalari hisoblangan kontragentlar.

8. Ushbu Yo‘riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llanilgan:

ijrochi – shartnoma bo‘yicha ish yoki xizmatni bajaruvchi, tovar yetkazib beruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs;

kontragent – tashkilot bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan (*mehnat munosabatlari bundan mustasno*) har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

kontragent/kontragentning benefitsiar egasi (yakuniy benefitsiar) - kontragentning xususiy egasi bo‘lgan yoki ushbu Kontragent uchun majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish, qabul qilinayotgan qarorlarga ta’sir ko‘rsatish yoki boshqacha tarzda uning harakatlarini bevosita yoki bilvosita nazorat qilish huquqi yoki imkoniyatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs;

korrupsiyaviy harakatlar – klinika xodimi tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat;

maxfiy axborot – bu olinishi, ishlanishi, uzatilishi yoki foydalanishi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki axborot egasining ichki hujjatlariga muvofiq cheklanadigan har qanday shakldagi axborot;

tashabbuskor – Klinika tarkibiy bo‘linmasi;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – Klinika xodimi, uning yaqin qarindoshi yoki xodim bilan bog‘langan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan (*shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy,*

siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari) pul mablagʻlari, moddiy va nomoddiy qadriyatlar, boshqa mulk, foyda, imtiyoz va afzalliklar koʻrinishidagi shaxsiy foyda olish.

yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, oʻgʻillar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

II. Tekshiruvni boshlash tartibi, tekshiruv uchun talab qilib olinadigan hujjatlar va axborot manbalari

9. Xarid jarayoni doirasida uning ishtirokchilarini tekshirish Xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilar bergan takliflar solingan konvertlarni baholash uchun ochilganidan keyin, biroq xarid qilish tartib-taomillari yakunlari boʻyicha gʻolib boʻlgan taklifning aksepti toʻgʻrisida qaror qabul qilinguniga qadar amalga oshiriladi.

10. Xarid jarayoni doirasida qonunchilik va klinikaning ichki hujjatlari tomonidan oʻrnatilgan muddatlarga rioya qilinishi ustidan tekshiruvni amalga oshirish uchun masul – tegishli Xarid komissiya raisi yoki shartnoma tashabbuskori hisoblanadi (agar xarid toʻgʻridan-toʻgʻri shartnoma boʻyicha amalga oshirilayotgan boʻlsa). Bunda, ijrochi Xarid komissiya raisi tomonidan tayinlanadi.

11. Kontragentlar tekshiruvi ijrochi tomonidan hujjatlar tashabbuskoridan ushbu Yoʻriqnomaning 16-bandida koʻrsatilgan hujjatlar olingan sanadan 5 kundan ortiq boʻlmagan muddatda amalga oshiriladi.

12. Tekshiruvni belgilangan muddatlarda oʻtkazish imkoni boʻlmagan taqdirda uning davomiyligi Xarid komissiyasi raisi bilan kelishilgan holda 3 ish kunidan ortiq boʻlmagan muddatga yozma shaklda uzaytirilishi mumkin.

13. Kontragentlarning tekshiruvini shoshilinch tartibda oʻtkazish zaruriyati mavjud boʻlgan hollarda, tashabbuskor tomonidan shoshilinchlikka asoslangan, tekshiruvni oʻtkazishning zarur muddatlari koʻrsatilgan Xizmat xati bilan Xarid komissiyasiga murojaat qiladi. Shoshilinch tekshiruv oʻtkazish toʻgʻrisidagi qaror Xarid komissiyasi qarori asosida yoʻl qoʻyiladi.

14. Kontragentlarni tekshirish uchun hujjatlarni toʻplash va taqdim qilish uchun Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskor (*agar xarid toʻgʻridan-toʻgʻri shartnoma boʻyicha amalga oshirilayotgan boʻlsa*) masul boʻladi.

15. Kontragentni tekshirish uchun ijrochiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

kontragentning oʻzi ushbu Yoʻriqnomaga 1-ilovaga muvofiq shaklda toʻldirgan yakuniy benefitsiarlari toʻgʻrisidagi malumotnoma;

kontragentdan olingan hujjatlar nusxasi (ushbu Yoʻriqnomaga 2-ilova);

kontragentning korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha ichki hujjatlari (mavjud boʻlsa) nusxasi (*siyosatlar, nizomlar, hulq-ahloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi dasturlar va b.*).

16. Ushbu Yo'riqnomaning 15-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni olish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq majburiy hisoblanadi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kontragentning ichki hujjatlari va yakuniy befetsiarlar to'g'risidagi malumotnoma bundan mustasno. Kontragentning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlar va yakuniy benefetsiarlar to'g'risidagi malumotnomani taqdim etishni rad etgan taqdirda, tashabbuskor bu haqda Kontragent ustidan taqdim etilgan hujjatlar asosida tekshiruvni amalga oshiradigan ijrochiga xabar beradi.

17. Kontragentdan olingan barcha hujjatlar notarial tarzda yoki kontragentning vakolatli vakili tomonidan tegishli tarzda tasdiqlangan bo'lishi lozim. Taqdim etiladigan hujjatlar amal qilayotgan bo'lishi, davlat reestrlari hujjatlari esa tekshiruv sanasiga qadar 30 (o'ttiz) kundan ortiq bo'lmagan muddatda olingan bo'lishi kerak.

18. Kontragentni tekshirish uchun ma'lumotlar to'plash ijrochi tomonidan kontragent, uning egalari va rahbarlari, faoliyati to'g'risida yaxlit va xolis fikrga ega bo'lish, shuningdek, undan olingan hujjat va ma'lumotlarning ishonchliligi, shu jumladan, ularning ishonchsizligi bo'yicha belgilar yo'qligini (*soxtalashtirish alomatlari mavjud emasligini*) baholash uchun amalga oshiriladi.

Kontragentlarni tekshirish doirasida ijrochi quyidagilarni tahlil qiladi:

kontragent tomonidan taqdim etilgan axborot va hujjatlar. Ushbu Yo'riqnomaga 2-ildavda ko'rsatilgan hujjatlarni kontragentdan olish imkoni bo'lmaganda yoki olingan hujjat yoki axborotlarning ishonchli emasligi (*soxtalashtirilgani*) belgilari mavjud bo'lgan hollarda ijrochi kontragent tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosada tegishli belgi qo'yadi;

ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar. Ijrochi 3-ildavda ko'rsatilgan axborot manbalaridan foydalanishi mumkin. Ushbu ro'yxat tavsiyaviy bo'lib, zaruriyat tug'ilganda ijrochi boshqa manbalardan foydalanishi mumkin;

tegishli tashkilotlarga rasmiy so'rovnoma yuborish yo'li bilan olingan hujjatlar;

Klinikaning ichki resurslari, shu jumladan, kontragentlar tekshiruvlari reyestri, xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi reyestri va boshqalar.

19. Kontragentni tekshirish uchun ishlatilgan manbalar qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi kerak.

20. Zaruriyat bo'lganda ijrochi tekshiruv davomida kontragentlarni joyiga chiqib, o'rganishi mumkin. Bu kabi tekshiruvni o'tkazish uchun ijrochi o'z bo'linmasi rahbari bilan kelishishi lozim.

Sayyor tekshiruv davomida tashkilot rahbari (vakolatli vakili) bilan uchrashuv bayonnomasi tuzilib, unda kontragentdan olingan, dastlab ijrochi tomonidan asl nusxalari bilan taqqoslangan hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari sanab o'tiladi. Olingan hujjatlar nusxalarining va kontragentning vakolatli vakili tomonidan taqdim etilgan izohlar ro'yxati tekshirilayotgan kontragentning vakolatli vakili va ijrochi tomonidan imzolangan alohida ro'yxat ko'rinishida rasmiylashtirilishi va uchrashuv bayonnomasiga ilova qilinishi kerak.

III. Kontragentlarni tekshirish metodologiyasi

21. Kontragentlarni tekshirish quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

1) kontragentning huquq layoqati, moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va u bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlar tarixini tekshirish, shu jumladan:

a) shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, xodimlar va boshqa resurslarning mavjudligi;

b) shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;

v) soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzдорlikning mavjud emasligi;

g) kontragentlarga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

d) insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligi;

2) kontragentning shartnoma predmeti yoki sohasidagi obro‘-etibori;

3) manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligini tekshirish. Ko‘rsatilgan yo‘nalishlar bo‘yicha tekshiruv o‘tkazish majburiy hisoblanadi. Klinika yo‘nalishlari ro‘yxati har bir alohida holatda ijrochining xarid komissiyasi qarori bilan kelishilgan talabga ko‘ra kengaytirilishi mumkin. Bunda, tekshirish yo‘nalishi davlat xaridlarini tartibga soluvchi qonunchilikka zid bo‘lishi va (yoki) raqobat tamoyillarini cheklashga olib kelishiga yo‘l qo‘yilmasligi lozim.

22. Ijrochi foydalanish mumkin bo‘lgan axborot manbalarining tahlilini amalga oshiradi va 25-27-bandlarda ko‘rsatilgan har bir yo‘nalishga nisbatan quyidagi kontragentning tekshiruv natijalari to‘g‘risida xulosada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning bor-yo‘qligini belgilaydi.

23. Ushbu Yo‘riqnoma amalga kiritilgunga qadar shartnomaviy munosabatlarda bo‘lgan klinikaning amaldagi kontragentni tekshirishda ijrochi bundan avvalgi shartnomaviy munosabatlarning davomiyligi, ushbu kontragent bilan o‘zaro harakat tajribasi va uning klinika bilan avval tuzilgan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdagi halolligini tekshiradi.

Yangi kontragentni tekshirishda ijrochi kontragent tomonidan shu kabi shartnomalarning bajarilganligi to‘g‘risidagi axborot va boshqa buyurtmachilar (mijozlar) bergan tavsiyanomalarni tahlil qiladi hamda imkon darajasida ushbu kontragentning boshqa mijozlari oldidagi shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdagi halolligini tekshiradi.

24. Kontragentning huquq layoqatini, moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va u bilan bo‘lgan munosabatlar tarixini tekshirish doirasida ijrochi quyidagi ma’lumotlarni aniqlaydi:

tadbirkorlik sub’ektlarining Yagona reestrda kontragentning borligi;

kontragentning yuridik va amaldagi manzili;

kontragent rahbari va tasischilarining F.I.Sh.;

kontragent asosiy faoliyat turining xarid predmetiga muvofiqligi;

kontragent faoliyatini tugatish, qayta tashkil etish, o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

kontragentda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda litsenziyalanishi kerak bo'lgan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun zarur litsenziyalarning (ruxsatnomalar) mavjudligi;

kontragentda ochiq axborot, taqdim etilgan hujjatlar va buxgalteriya hisobdorligiga muvofiq, asosiy mablag'lar, xususiy kapital, xodimlar va boshqa texnik, moliyaviy, moddiy va klinika oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa resurslarning mavjudligi;

kontragent nomidan klinika bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan shaxsda tegishli vakolatning mavjudligi;

kontragent maxsus axborot portalida insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritilmaganligi;

kontragentning so'nggi ikki yil ichida klinika oldidagi shartnomaviy majburiyatlarning o'z vaqtida bajarmaganligi yoki ularning lozim darajada bajarmaganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud emasligi;

kontragentda soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlikning mavjud emasligi.

25. Kontragentning ish sohasidagi obro'-etiborini tekshirish doirasida ijrochi quyidagi ma'lumotlarni aniqlaydi: ochiq axborot manbalarida kontragent, uning mulkiy egalari, shu jumladan benefitsiar mulkiy egalari yoki rahbarlarning firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar yoki boshqa noqonuniy faoliyatda ishtirok etganligi to'g'risidagi axborot mavjud emasligi;

kontragent rahbariga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi yoki boshqa davlat organlarida qoralovchi malumot yoki materiallarning mavjud emasligi;

kontragent, uning mulkiy egalari yoki bosh direktor (boshqaruv organlari azolari) va boshqa rahbarlarning jinoiy tuzilmalar, ekstremistik va terroristik tashkilotlar bilan o'zaro aloqasi mavjud emasligi;

kontragentning ishbilarmonlik ahloqiy meyorlari va korrupsiyaga qarshi kurash masalalarini tartibga soluvchi tartib-taomil va siyosatlarining mavjudligi;

kontragentning mulk egalari yoki rahbarlariga (boshqaruv organlari azolari) nisbatan uning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jinoyat ishlari mavjud emasligi;

kontragent, uning mulk egalari yoki boshqa rahbarlari to'g'risida boshqa salbiy ma'lumotlar mavjud emasligi.

26. O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasiga muvofiq, Davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek, xarid komissiyasining azolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo'lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

Shunga muvofiq, ijrochi ushbu Yo'riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq shaklda to'ldirilgan kontragentning yakuniy benefitsiarlari to'g'risidagi ma'lumotnomada aks ettirilgan ma'lumotlarning tadibirkorlik subyektlari Yagona davlat reyestri ma'lumotlariga muvofiqligini tekshiradi. Ushbu tekshiruv Kontragentning rahbarlari va tasischilariga nisbatan ham amalga oshiriladi. Shuningdek, ijrochi manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki yo'qligini quyidagi mezonlar bo'yicha tekshiradi:

kontragentning yagona yoki mulkiy egalaridan biri, shu jumladan, benefitsiar mulkiy egasi – bu xarid jarayonining boshqa ishtirokchisi rahbari yoki uning yaqin qarindoshi emasligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki klinikaning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari uning ustav kapitalidagi ommaviy aylanmada bo'lmagan aksiyalari yoki hissalariga, yoki kontragentning Respublika fond birjasida yoki yana boshqa bir fond birjasida ommaviy aylanmada bo'lgan 5% dan ortiq qimmatli qog'ozlariga egalik qilmasligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki klinikaning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari kontragent boshqaruv kengashi tarkibiga kirmasligi yoki uning faoliyati natijalaridan shaxsiy manfaatdorlikka (*shu jumladan, ularning investitsiyalarini amalga oshirishda*) ega bo'lmashligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki klinikaning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari kontragentda rahbarlik lavozimi yoki qarorlar qabul qilish bilan bog'liq lavozimlarda ishlamasligi; kontragent va Xarid komissiyasi azolari o'rtasida affillanganlik aloqalarining mavjud emasligi;

manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan boshqa sharoitlar. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini tekshirishni ijrochi kontragentlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni manfaatlar to'qnashuvini deklarasiyalash doirasida klinika xodimlari tomonidan aks ettirilgan va tegishli reestrda kiritilgan ma'lumotlar bilan taqqoslash orqali amalga oshiradi.

IV. Tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish va hujjatlashtirish

27. O'tkazilgan tekshiruv natijalari bo'yicha ijrochi ushbu Yo'riqnoma 4-ilovada keltirilgan shaklda xulosa (chek-list) tuzadi. Kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosaga ijrochi o'tkazilgan tahlil va tahlilni tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni ilova qiladi.

28. Real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi alomatlari aniqlangan taqdirda ijrochi uni tartibga solish zaruriyati to'g'risida choralarni ko'rish bo'yicha Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskorga taklif kiritadi. Agar manfaatlar to'qnashuvi alomatlari klinika xodimlarida aniqlangan bo'lsa, bu haqda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limini (keyingi o'rinlarda – Ichki nazorat bo'limi) xabardor qiladi.

Manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi bo'yicha o'tkazilgan tahlil yakunlari va uni tartibga solish bo'yicha choralar ham kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosa (chek-list)da aks ettiriladi.

29. Xatar indikatorlari aniqlanganda ijrochi kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosada aniqlangan xatarlarni kamaytirishga yo'naltirilgan kontragent bilan ishlash bo'yicha tavsiyalarni taklif qiladi va aks ettiradi (*masalan, shartnomaga avans to'lovlarga taqiqni kiritish va boshqa*).

30. Ijrochi kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosani Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskorga taqdim etadi. Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskor olingan xulosani xarid ishtirokchisini tanlash to'g'risida qarorni qabul qilish doirasida hisobga oladi, bu haqda xarid komissiyasi yoki kontragent bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishdagi bayonnomada tegishli yozuv kiritiladi.

31. Kontragent va klinika xodimi o'rtasida real manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan taqdirda, xarid jarayonini davom ettirishdan oldin klinikada manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki hujjatlar talablariga asosan tartibga solinishi kerak. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish imkoni bo'lmagan taqdirda kontragent xarid jarayonida ishtirok etishdan chetlatilishi lozim.

32. Agar to'g'ridan-to'g'ri xaridlar doirasida kontragentni tekshirish natijalariga ko'ra, korrupsiyaviy xavf-xatarning mavjudligini yoki korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yo'qligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar aniqlansa, u holda kontragent bilan shartnoma tuzish ehtimoli haqidagi qaror Bosh shifokor yoki uning tegishli o'rinbosari tomonidan qabul qilinadi.

33. Kontragent tekshiruvi natijalari to'g'risidagi xulosa majburiy tartibda xarid qilish jarayonlari natijalari to'g'risidagi qaror qabul qilish, shartnoma bo'yicha kelishish va to'lovlarni amalga oshirish uchun talab etiluvchi hujjatlar to'plamiga qo'shib qo'yiladi.

34. Klinika natijalari to'g'risidagi xulosa (chek list) chiqqanidan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay Ichki nazorat bo'limi bu haqidagi ma'lumotni ushbu Yo'riqnomaga 5-ilovaga muvofiq shaklda Kontragentlarni tekshirish reyestriga kiritadi.

35. Kontragentlarni tekshirish reyestri va kontragentlarni tekshirish natijalari, shuningdek, tekshiruv uchun ariza, kontragentni tekshirish natijalari to'g'risidagi xulosa, kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda ijrochi tomonidan tegishli manbalardan olingan ma'lumotlar kontragent bilan shartnoma munosabatlari to'xtatilgan kundan boshlab kamida 3 (uch) yil Ichki nazorat bo'limida saqlanadi.

36. Kontragentlarni tekshirish reyestri va kontragentlarni tekshirish natijalari, shuningdek, tekshiruv uchun ariza, kontragentni tekshirish natijalari to'g'risidagi xulosa, kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda ijrochi tomonidan tegishli manbalardan olingan ma'lumotlar konfidentsial bo'lib, klinika xodimlariga va xizmat vazifalari va vakolatlari bunday ma'lumotlardan foydalanishni o'z ichiga olmagan hamda boshqa uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi.

V. Yakuniy qoidalar

37. Kontragentlarni tekshirish jarayoni doimiy ravishda Ichki nazorat bo'limi tomonidan monitoring qilib boriladi.

38. Ushbu Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgargan taqdirda yoki kontragentlarni tekshirish jarayonini takomillashtirish zarurati tug'ilganda qayta ko'rib chiqilishi va o'zgartirilishi lozim.

39. Mazkur Yo'riqnoma qoidalarini buzishda aybdor xodimlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va klinika ichki meyoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan tartib va asosda intizomiy va boshqa javobgarlikka tortilishi mumkin.

*Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko‘p
tarmoqli klinikasida kontragentlarni tekshirishga
oid yo‘riqnomaga
1-ilova*

Yakuniy benefitsiarlar to‘g‘risida _____
(haridlar ishtirokchisi) *

MA’LUMOTNOMA

№	F.I.Sh	Tug‘ilgan sanasi	Shaxsning roli (rahbar/ta’sis- chi/yakuniy benifitsiar)	Shaxs rahbar/ta’sis- chi/yakuniy benifitsiar bo‘lgan davr	Ishtirok yetish ulushi (faqat 5 foizdan ortiq ulushga yega ta’sischilar uchun) foizda
1					
2					
3					
4					
5					
6					
...					

**so‘nggi ikki yil uchun to‘ldiriladi*

**Vakolatli shaxsning
F.I.Sh.** _____

Harid ishtirokchisidagi vakolatli shaxsning lavozimi_____

Ma’lumotnoma tuzilgan sana _____

*Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p
tarmoqli klinikasida kontragentlarni tekshirishga
oid yo'riqnomaga
2-ilova*

Kontragentdan tekshirish uchun so'raladigan hujjatlar

O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan kontragentlardan talab qilinadigan hujjatlar:

t/r	Hujjat nomi	Yuridik shaxs (YuSh) / Yakka tartibdagi tadbirkor (YaTT)	Yangi kontragent	Joriy kontragent
1	Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi	YuSh/YaTT	Majburiy	n/p
2	Soliq hisobiga qo'yish, shu jumladan STIR to'g'risida ma'lumotlar	YuSh/YaTT	Majburiy	Majburiy
3	Yuridik shaxslarning yagona Davlat reestriga kiritish to'g'risida ma'lumot	YuSh/YaTT	Majburiy	Majburiy
4	Ustav va boshqa tasis hujjatlarining nusxasi	YuSh	Majburiy	O'zgarish bo'lganda so'rab olish
5	Pasport nusxasi	YaTT	Majburiy	O'zgarish bo'lganda so'rab olish
6	Ishonchnoma	YuSh/YaTT	Majburiy	Majburiy
7	Kontragent egaligi tuzilmasi, bunga benefitsar mulkiy egalarni ham hisobga olgan holda barcha mulk egalari kiritiladi	YuSh	Majburiy	O'zgarish bo'lganda so'rab olish
8	So'nggi hisobot yili uchun buxgalteriya hisoboti yoki so'nggi hisobot yili uchun auditorlik xulosasi	YuSh/YaTT	Majburiy	Majburiy
9	Ko'rsatilgan ishlar/xizmatlarni bajarish uchun malakali kadrlarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot (xat va / yoki tasdiqlovchi hujjatlar shaklida taqdim etilishi mumkin)	YuSh	Majburiy	O'zgarish bo'lganda so'rab olish
10	Muvofiqlik lisenziyalari va sertifikatlari	YuSh/YaTT	Sotib olingan tovarlar/ishlar/xizmatlar turiga qarab majburiy	Sotib olingan tovarlar/ishlar/xizmatlar turiga qarab majburiy

Kontragentlarni tekshirish uchun ochiq axborot manbalari

1. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirish Davlat xizmatlari agentligi platformasi - https://fo.birdarcha.uz/s/ru_landing
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi - <http://registr.stat.uz/>
3. Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali - <https://my2.soliq.uz/main/info/debtors?lang=uz> va <https://soliq.uz/activities/tax-risk-analysis>
4. O'zbekiston Respublikasi ochiq malumotlar portali - <https://data.gov.uz/ru>
5. Toshkent shahar yer resurslari va Davlat kadastr boshqarmasi - <http://kadastr.uz/ru/>
6. Insofsiz ijrochilarning yagona reestri - <http://xarid.uz/unfairexecutor>
7. Iqtisodiy, mamuriy, jinoiy va fuqarolik sudlarining sud hujjatlari - <https://public.sud.uz/#!/sign/view>
8. Ofshor zonalar ro'yxati - <http://www.fatf-gafi.org/publications/high-risk-and-other-monitored-jurisdictions/documents/call-for-action-february-2021.html>
9. AQSh maxsus toifadagi va taqiqlangan shaxslar ro'yxati (yoki World Check malumotlar bazasi) - <https://sanctionssearch.ofac.treas.gov/>
10. Buyuk britaniyada taqiqlangan shaxslar ro'yxati - <https://search-uk-sanctions-list.service.gov.uk/?ref=dron.media>

Ushbu ro'yxat ijrochi tomonidan tekshirish uchun tavsiya etilgan manbalar ro'yxati bo'lib, zarur bo'lganda kengaytirilishi mumkin.

Kontragentni tekshirish haqidagi hisobot

1.	Ishtirokchining ismi				
2.	STIR				
3.	Ro'yxatga olingan sana				
4.	Yuridik va amaldagi manzili				
5.	Rahbarning FISH				
6.	Ta'sisчилarning FISH				
7.	Yakuniy benefitsiarlarning FISH				
8.	Ishtirokchi tadbirkorlik subektlarining Yagona Davlat reestrda bor	HA	☐	YO'Q	☐
9.	Ishtirokchidan imzo chekuvchi shartnoma tuzishga haqli	HA	☐	YO'Q	☐
10.	Ishtirokchining asosiy faoliyati xarid predmetiga mos keladi	HA	☐	YO'Q	☐
11.	Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashda qarzдорliklarning yo'qligi	HA	☐	YO'Q	☐
12.	Ishtirokchiga nisbatan joriy etilgan qayta tashkil etish, tugatish (likvidatsiya), bankrotlik tartib taomillarining yo'qligi	HA	☐	YO'Q	☐
13.	Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda ishtirokchi haqida yozuvning yo'qligi	HA	☐	YO'Q	☐
14.	Tashkilot tizimida ishtirokchi bilan ishlashning avvalgi salbiy tajribasining yo'qligi	HA	☐	YO'Q	☐
15.	Ishtirokchi xaridning boshqa ishtirokchilari bilan affillanmagan	HA	☐	YO'Q	☐
16.	Manfaatlar to'qnashuvi / ishtirokchining Tashkilot tizimi xodimlari bilan affillanganligi haqida malumot yo'qligi	HA	☐	YO'Q	☐

Aniqlangan manfaatlar
17. to'qnashuvini tartibga solish
chora-tadbirlari

Manfaatlar to'qnashuvlarini tartibga solish chora
tadbirlari tavsifi

Korrupsiyaga oid
18. qoidabuzarliklar ehtimoli
haqida ma'lumotlar

Mavjud emas / Manba: [havola], [Harid jarayonlari
ishtirokchisining korrupsiyaga odi
qoidabuzarligi/poraxo 'rligi tavsifi]

Ish sohasidagi obro'sining
19. salbiy omillari ehtimoli haqida
malumotlar

Mavjud yemas / Manba: [havola], [ishchanlik
obro'sining salbiy omillari tavsifi]

Korrupsiyaga qarshi kurashish
20. bo'yicha hujjatlarning
mavjudligi (vab-saytda taqdim
etilgan yoki mavjud)

HA

☐

YO'Q

☐

21. Ishtirokchining sayti

Mavjud emas/ Saytning manzili: [havola], faol / faol
emas

22. Ishtirokchi mavjudligi muddati
(yillarda)

Ishtirokchining moliyaviy,
moddiy, texnik, kadrlar va
boshqa resurslari miqdori
23. shartnoma bo'yicha
majburiyatlarni bajarish uchun
yetarli resurslari borligi

HA

☐

YO'Q

☐

Ishtirokchi tekshirish uchun
24. barcha zarur hujjatlarni taqdim
etgan

HA

☐

YO'Q

☐

25. Agar taqdim etmagan bo'lsa, taqdim etilmaganlarini ko'rsating:

- a) [Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]
b) [Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]
v) [Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]
g) [Hujjat / materialning qisqacha tavsifi] va b.

Tekshirish natijalari
asosida asosiy xulosalar va
kuzatishlar

Xatarlar aniqlanganligini (ha, yo'q) va, agar shunday
bo'lsa, qanday xatarlar va ularni qanday kamaytirish
mumkinligini ko'rsating

Xarid jarayoni ishtirokchisini tekshirishni amalga oshirgan xodim haqida
ma'lumotlar

F.I.Sh.

Lavozimi

Hisobot tuzilgan sana

Lotning raqami

Imzo

*Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p
tarmoqli klinikasida kontragentlarni tekshirishga
oid yo'riqnomaga
5-ilova*

Xarid jarayonlari ishtirokchilarini/kontragentlarni tekshirish reestri

[illegible]